



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 240 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmurotovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуювна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуювна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohbnazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабиржанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbayeva Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms.....	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	
Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan	204
Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	208
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich	
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish.....	212
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
Цифровизации системы стратегического управления предприятий нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	217
Азимов Кабул	
Индекс устойчивости региона против бедности (poverty resilience index – pri): на примере бухарской области Республики Узбекистан (2024)	223
Мухамедова Мадинабону Мехридиновна	
Экономические аспекты внедрения цифровых технологий в полиграфии.....	230
Юсупхужаева Шахноза Музаффар кизи	
Mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	233
Sattorov R. A.	



MINTAQALARARO IQTISODIY HAMKORLIKNI SHAKLLANTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Sattorov R. A.

tadqiqotchi

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

E-mail: academics.uzb@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari keng yoritilgan. Muallif viloyatlararo iqtisodiy hamkorlikning dolzarb jihatlarini tahlil qilib, uning mamlakat iqtisodiy o'sishidagi o'rni va ahamiyatini asoslab bergan. Maqolada mintaqalar o'rtasidagi ishlab chiqarish, resurslar va xizmatlar almashinuvi, raqobatbardoshlik, kooperatsiya hamda aglomeratsiya kabi o'zaro bog'liq jarayonlarning iqtisodiy samaradorligi ochib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida iqtisodiy rayonlar tizimini shakllantirish taklif etilib, amaliyot va nazariya uyg'unligidagi tahlillar orqali hududlararo integratsiya imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: mintaqalararo iqtisodiy hamkorlik, viloyatlararo integratsiya, iqtisodiy rayonlar, hududiy rivojlanish, kooperatsiya, markaziy joylar nazariyasi, innovatsion iqtisodiyot.

Abstract: This article comprehensively examines the scientific and theoretical foundations for forming and sustainably developing interregional economic cooperation. The author analyzes the pressing aspects of interprovincial economic cooperation and substantiates its role and importance in the country's economic growth. The article reveals the economic efficiency of interconnected processes among regions, such as production, resource and service exchange, competitiveness, cooperation, and agglomeration. In the context of Uzbekistan, the formation of a regional economic zoning system is proposed, and the opportunities for interregional integration are presented through a synthesis of theory and practice.

Key words: interregional economic cooperation, interprovincial integration, economic regions, regional development, cooperation, central place theory, innovative economy.

Аннотация: В данной статье подробно освещены научно-теоретические основы формирования и устойчивого развития межрегионального экономического сотрудничества. Автор анализирует актуальные аспекты межобластного экономического взаимодействия, обосновывая его роль и значение в обеспечении экономического роста страны. Раскрыта экономическая эффективность взаимосвязанных процессов между регионами, таких как обмен производственными ресурсами и услугами, конкурентоспособность, кооперация и агломерация. В условиях Узбекистана предложена модель формирования системы экономических районов, а посредством сбалансированного сочетания теоретико-методологических положений и практических инструментов выявлены перспективы межрегиональной интеграции.

Ключевые слова: межрегиональное экономическое сотрудничество, межобластная интеграция, экономические районы, региональное развитие, кооперация, теория центральных мест, инновационная экономика.

KIRISH

Ma'lumki, mamlakatimizda barqaror va yuqori iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida hududlarni kompleks hamda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, hududlarda mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ular aholisining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvini hisobga olgan holda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash zarurligi ta'kidlangan¹.

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarni kompleks rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri sifatida viloyatlararo hamkorlikni tashkil etish dolzarb ahamiyatga ega. Viloyatlararo iqtisodiy hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish:

- iste'mol bozorining yanada barqaror rivojlanishiga;
- ishlab chiqaruvchilarni xomashyo va butlovchi mahsulotlar bilan ta'minlashga;
- ichki bozor hajmini talab asosida kengaytirishga;
- aholining turli tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga;
- korxonalar raqobatbardoshlik darajasini oshirishga;
- transport xarajatlari va mahsulot (xizmat) narxlarining pasayishiga;
- mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishga;
- hududlararo ishlab chiqarish, investitsiya va mehnat resurslarining erkin harakatlanishidagi to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Mintaqalararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish zarurati deyarli barcha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qayd etilgan bo'lib, uning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish O'zbekiston sharoitida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi². Xorijiy davlatlar va mamlakatimiz olimlarining qarash va mulohazalarini umumlashtirib tahlil qilgan holda, O'zbekistonda mintaqalar tizimini quyidagicha shakllantirish maqsadga muvofiq:

- iqtisodiy zonalar (Sirdaryo va Amudaryo);
- iqtisodiy rayonlar;
- ma'muriy-hududiy taqsimot asosidagi mintaqalar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar, shaharlar);
- tabiiy xilma-xillikka asoslangan mintaqalar (cho'l, tog' va tog' oldi, vodiylar).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, rasmiy hujjatlar va statistik ma'lumotlarda O'zbekistonda asosan ma'muriy-hududiy taqsimot — Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahri, shahar va tumanlar, qishloq hamda shahar joylari tushunchalaridan foydalaniladi. Mintaqalarning boshqa turlari — iqtisodiy zonalar va iqtisodiy rayonlar atamaları hamda mohiyati, asosan, ilmiy tadqiqotlarda uchraydi. Ular ma'muriy-hududiy chegaralardan tashqariga chiqib, bir nechta o'zaro bog'liq hududiy subyektlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy rayonlar bo'yicha turli ilmiy qarashlar mavjud bo'lsa-da, bizning fikrimizcha, ularni, eng avvalo, viloyatlararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni tashkil etishda hamda ilmiy-tahliliy ma'lumotlar tayyorlashda keng qo'llash mumkin. Mamlakatimiz iqtisodiy rayonlari, odatda, qo'shni hududlarni qamrab oladi va o'zining tabiiy-iqlim sharoiti, yer va suv resurslari, mineral-xomashyo bazasi, ishlab chiqarish infratuzilmasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari birligi bilan ajralib turadi.

Mintaqaviy hamkorlik nuqtai nazaridan, O'zbekistonda quyidagi iqtisodiy rayonlarni ajratish mumkin:

- Toshkent iqtisodiy rayoni (Toshkent shahri va Toshkent viloyati);
- Sirdaryo-Jizzax iqtisodiy rayoni (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari);
- Markaziy iqtisodiy rayon (Samarqand, Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari);
- Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati);
- Janubiy iqtisodiy rayon (Surxondaryo viloyati);
- Farg'ona iqtisodiy rayoni (Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari)³.

Amaliy jihatdan O'zbekistonda birinchi navbatda Farg'ona va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlari mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha o'ziga xos afzalliklarga ega. Shu sababli, viloyatlararo iqtisodiy rivojlanish masalalarini mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida alohida yo'nalish sifatida o'rganish va tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir⁴.

XX asrning o'rtalarida shved iqtisodchilari E. Xeksher va B. Olin savdo oqimlari yo'nalishi va tarkibining hududlar bo'yicha taqsimlanishini yangicha talqin qilgan. Ularning fikricha, hududda ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksport qilinishi uchun ularning tannarxi boshqa hududlarga nisbatan past bo'lishi va yuqori daromad keltirishi lozim. Mintaqalar o'rtasida savdo va raqobatning kuchayishi esa M. Porter tomonidan hududlarning raqobat ustunliklari nazariyasini ishlab chiqishga turtki bo'lgan. Mazkur nazariya asosida u ishlab chiqarishni

2 Изард У. Методы регионального анализа: введение в науку о регионах. –М. Прогресс, 1966,-659с.

Белоусова А.В. Межрегиональные взаимодействия: влияние на экономику региона. Пространственная экономика, 2012, №4, 127-137с.

Лукин Е.В. Межрегиональные связи. Экономические и социальные перемены, 2012, №6, с.205-217.

Ахмедов Т.М. и др. Региональная экономика, - М, 2016, - 235с.

Абдурахманов К.Х. и др. Региональная экономика и управление, -Т, 2007, - 750с.

Маматкулов А.В. Ўзбекистон чўл зонаси табиий-иқтисодий салоҳиятидан самарали фойдаланишнинг асосий йўллари. –Т, 2012,- 39с.

3 Солиев А.С. ва бошқалар. Минтақавий иқтисодиёт. Тошкент, 2003, 141 б

4 Porter M. Competitive advantage of Nations. New York, 1998,-896p.



klaster shaklida tashkil etish g'oyasini ilgari surgan. Klasterlashuv mehnat unumdorligini oshirish, innovatsion jarayonlarni jadallashtirish, yaqin joylashuv afzalliklaridan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish va qo'shimcha qiymat zanjirini optimallashtirish orqali hudud iqtisodiyoti tarkibini takomillashtirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston hududlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikning hozirgi holatini baholash va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. Metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil, taqqoslash va iqtisodiy-statistik usullar qo'llanildi.

Birinchidan, hududlararo iqtisodiy aloqalarni o'rganishda mavjud rasmiy statistik ma'lumotlar, jumladan, 2020–2024-yillar davomida Davlat statistika qo'mitasi e'lon qilgan hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bazasi tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar yordamida ishlab chiqarish hajmlari, tovar ayirboshlash, transport-logistika oqimlari, mehnat resurslaridan foydalanish va boshqa asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha hududlararo farqlar aniqlangan.

Ikkinchidan, mintaqalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholashda monografik tadqiqotlar va ekspert baholash usullari qo'llanildi. Bu yondashuvlar hududlararo savdo, xizmatlar almashinuvi, investitsion oqimlar va kooperatsiya darajasini aniqlash imkonini berdi.


Uchinchidan, tahlilda "input-output" (xarajat-chiqim) modeli elementlaridan foydalanilib, mintaqalararo tovar va xizmat oqimlarining tarmoqlar kesimidagi o'zaro ta'siri baholandi. Bu usul resurslarning hududlar bo'yicha taqsimlanish samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, hududlararo hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar o'rganilib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi. Natijalarni tasdiqlash va aniqlashtirish maqsadida ekspertlar bilan suhbatlar, so'rovnoma va diagnostik baholash metodlari ham qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaviy hamkorlik subyektlariga turli mulkchilik shaklidagi korxonalar va xo'jalik subyektlari, davlat va mahalliy hokimiyat organlari, nodavlat tashkilotlar hamda xorijiy muassasalar kiradi. Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda mintaqalararo hamkorlikni shakllantirishda ixtisoslashuv, ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi va tabiiy-geografik sharoit bilan bir qatorda inson kapitali, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning roli sezilarli darajada ortgan. O'zbekiston sharoitida mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirishda demografik jarayonlar va ijtimoiy omillar ham bevosita ahamiyat kasb etadi.

Viloyatlararo hamkorlikka bag'ishlangan ilmiy asar va maqolalar tahlili uning turli darajadagi shakllari mavjudligini ko'rsatadi. Yuqori darajadagi mintaqalararo iqtisodiy hamkorlik O'zbekiston hududlari bilan xorijiy davlatlar, xalqaro ittifoqlar a'zolari, Markaziy Osiyo va Afg'oniston davlatlari hamda qo'shni mamlakatlar hududlari o'rtasidagi aloqalarni qamrab oladi (1-rasm).




1-rasm. O'zbekistonda viloyatlararo hamkorlikning shakllanish tizimi⁵

5 Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.



Tadqiqot obyekti bo'lgan O'zbekiston hududlari o'rtasidagi hamkorlik esa iqtisodiy rayon tarkibidagi mintaqalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri o'rtasida, shuningdek, shaharlararo va tumanlararo hamkorlik shakllarida namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqilgan viloyatlararo hamkorlik tizimiga kiruvchi hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy bog'liqlik darajasi turlicha bo'lib, asosiy omillar sifatida har bir hududning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish darajasi, raqobatbardoshlik ustunliklari hamda mehnat taqsimotidagi o'rni ko'rsatib o'tiladi. Viloyatlararo hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri uning qaysi shakllarda amalga oshirilishidir. Olimlar va mutaxassislarning hamkorlik shakllariga bo'lgan qarashlari turlicha bo'lsa-da, bizning fikrimizcha, O'zbekiston sharoitida viloyatlararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik shakllari mavjud muammolarni hal etishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga hamda aholining turmush darajasini yanada yaxshilashga yo'naltirilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir (2-rasm).



2-rasm. Viloyatlararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik shakllari

Taklif etilgan viloyatlararo hamkorlik shakllarini guruhlashning o'ziga xos jihatlari quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ishlab chiqarish, jumladan, sanoat korxonalarini joylashtirish va rivojlantirish, samarali kooperatsiya hamda klasterlar tizimini shakllantirish. Ikkinchidan, ijtimoiy sohada samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, tovar ayirboshlashni kengaytirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm va rekreatsiyani rivojlantirish, fan va innovatsiya yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash. Uchinchidan, qulay tadbirkorlik va investitsiya muhitini yaratish, investitsion dasturlar va loyihalarni amalga oshirish. To'rtinchidan, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonida bozor infratuzilmasini takomillashtirish va bank-moliya tizimining samarali faoliyatini ta'minlash. Beshinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik dasturlarni amalga oshirish hamda tabiat, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish.


Viloyatlararo munosabatlar va iqtisodiy hamkorlikda qo'shni hududlar o'rtasidagi bir qator asosiy yo'nalishlarni qayd etish maqsadga muvofiq. Ular quyidagilardan iborat: ishlab chiqarish bilan o'zaro bog'liqlik; moliya va bank sohasidagi hamkorlik; soliq tizimidagi o'zaro bog'liqlik; transport infratuzilmasi bo'yicha integratsiya; energetika tizimlari o'rtasidagi aloqalar; o'zaro savdo va xizmatlar sohasidagi hamkorlik; mehnat resurslaridan foydalanishdagi o'zaro bog'liqlik; suv va yer resurslaridan foydalanishdagi hamkorlik; axborot resurslari va raqamli iqtisodiyotdan foydalanishdagi integratsiya; ijtimoiy soha va inson kapitalini oshirish bo'yicha hamkorlik; innovatsion yutuqlardan foydalanishdagi o'zaro aloqalar.

Hududlar o'rtasidagi bog'liqlik yuk tashish oqimlari orqali ham xarakterlanadi. Bunga ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari, kooperatsiya orqali yetkazib beriladigan yarim tayyor mahsulotlar, elektr energiyasi tizimidagi



uzatishlar va boshqa turdagi oqimlar kiradi. Tovar oqimlarini hududlar kesimida chuqur o'rganish va tahlil qilish ular o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikning optimal darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Viloyatlararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni faollashtirish esa bir-biri bilan uzviy bog'langan bir nechta bosqichlardan iborat bo'lishi lozim (3-rasm).



3-rasm. Viloyatlararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirish bosqichlari

Viloyatlararo hamkorlikni amalga oshirish bosqichlarining eng muhimlaridan biri — bu rasmiy statistikada mavjud bo'lmagan ma'lumotlar bazasini shakllantirishdir. Jumladan, viloyatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi, har bir hudud bo'yicha boshqa hududlardan olib kirilayotgan yoki olib chiqilayotgan tovar va xizmatlar miqdori hamda boshqa tegishli ko'rsatkichlar aniqlanishi lozim. Ularni aniqlash jarayonida monografik tadqiqotlar va ekspertlar tomonidan beriladigan diagnostik baholash usullaridan foydalanish mumkin. Mintaqadagi tovar va xizmatlar bozorining kon'yunkturasini o'rganish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va xizmatlarning hudud ichida iste'moli, boshqa hududlarga yoki xorijga eksporti bo'yicha talab va taklif aniqlanadi.

Ilmiy-tahliliy bosqichda, to'plangan va qayta ishlangan axborot bazasi asosida har bir hududning joriy ijtimoiy-iqtisodiy holati, mahsulot va xizmatlar bozorining shakllanish darajasi, raqobat ustunliklari, ixtisoslashuv darajasi, ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasining hududlararo hamkorlikka ta'siri, mavjud muammolar va nomutanosibliklar aniqlanadi.

Uchinchi bosqichda viloyatlararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikning maqsad va vazifalari hamda aniq parametrlari belgilanib, ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqiladi. So'nggi bosqichda esa ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi"dagi chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishning normativ-huquqiy, institutsional, tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlari yuzasidan aniq takliflar tayyorlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har bir hudud o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalar, barqaror rivojlanish parametrlari, mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatning ustunliklari hamda samarali bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitlaridan kelib chiqib, mamlakatning barcha hududlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi mumkin. Shu bilan birga, viloyatlararo hamkorlikni tashkil etishda qo'shnichilik munosabatlari, yagona tabiiy-iqlim sharoiti, umumiy infratuzilma obyektlarining mavjudligi, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish kabi omillarga amal qilgan holda, yaqin hududlar bilan o'zaro tovar ayirboshlash, qo'shma investitsion loyihalarni amalga oshirish, aholining ehtiyojlarini to'liq qondirish orqali qo'shimcha iqtisodiy o'sishga erishish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mintaqaviy hamkorlik amaldagi mintaqaviy siyosatning ajralmas qismi sifatida qaralishi, uning ilmiy va amaliy asoslari isbotlanishi, amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilishi zarur. Ayniqsa, tadqiqot obyekti bo'lmish Farg'ona vodiysining Namangan viloyati misolida to'laqonli iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va faollashtirish juda muhim ahamiyatga ega. Bu tajriba O'zbekistonning boshqa hududlari uchun ham amaliy qo'llanma sifatida foydalanilishi mumkin.



Hozirgi davrda turli xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida hali to'liq ishga solinmagan moddiy va intellektual resurslardan iqtisodiyotni intensiv rivojlantirishda samarali foydalanish, shu jumladan, hududlararo hamkorlik va kooperatsiyani raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish nihoyatda dolzarb masalaga aylangan. Bu jarayon viloyatlararo klaster tizimini, innovatsion markazlarni, texnologik platformalarni hamda birgalikda foydalaniladigan ilmiy-innovatsion majmualarni tashkil etishni nazarda tutadi.

O'zbekistonda viloyatlararo iqtisodiy hamkorlikni tubdan takomillashtirish, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish va uni iqtisodiy o'sishning yangi omili sifatida qarash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi lozim. Bu borada eng murakkab vazifa viloyatlararo o'zaro hamkorlikni tashkil etishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirishdan iborat. Shu sababli, mintaqaviy hamkorlikning mavjud darajasini va kelgusidagi imkoniyatlarini baholash, uni rivojlantirish strategiyasini ilmiy asoslash hamda samarali uslublarini ishlab chiqish bugungi kunda juda dolzarbdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida hududlarni kompleks rivojlantirish, ular o'rtasida samarali iqtisodiy hamkorlikni ta'minlash va tarmoqlararo integratsiyani kuchaytirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ushbu maqolada viloyatlararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikning hozirgi holati tahlil qilinib, tizimli yondashuv asosida uning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar asimmetrik xususiyatga ega bo'lib, ayrim viloyatlar resurslarni yetkazib beruvchi, boshqalari esa iste'molchi sifatida ustunlik qiladi, bu esa hududlar rivojida nomutanosibliklarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, mahalliy tarmoqlar va sohalar o'rtasidagi kooperatsiya yetarli darajada shakllanmagan, transport va logistika tizimidagi mavjud muammolar esa iqtisodiy aloqalarni cheklamoqda. Hududlararo munosabatlarni aniq ifodalash, qaysi tarmoq yoki hududda talab va taklifning qaysi darajada mavjudligini baholash, resurslar taqsimotida oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib, hududlararo kooperatsiya strategiyasini ishlab chiqish, har bir viloyatning resurs salohiyati, tarmoqlararo ustuvor yo'nalishlari va mehnat taqsimoti asosida kompleks hamkorlik dasturlarini shakllantirish, bu dasturlarda transport, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalar o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olish; hududlararo ma'lumotlar almashinuvi tizimini yo'lga qo'yish, ya'ni har bir viloyatning iqtisodiy ko'rsatkichlari, tarmoqlar o'rtasidagi ishlab chiqarish va iste'mol aloqalari bo'yicha doimiy yangilanadigan ma'lumotlar bazasini yaratish va uni tarmoqlararo tahlillar uchun asosiy vosita sifatida qo'llash; infratuzilmaviy loyihalarni uyg'unlashtirish, ya'ni viloyatlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda yo'l, temir yo'l, logistika markazlari, sanoat klasterlari kabi infratuzilmaviy loyihalarni muvofiqlashtirish hamda klasterlar asosida yagona iqtisodiy makon shakllantirish; shuningdek, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish uchun ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish tavsiya etiladi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda viloyatlararo ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish uchun ilmiy asoslangan, tizimli va innovatsion yondashuvlar joriy etilishi zarur. Iqtisodiy hududlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilish va aniqlash imkonini beradigan ilmiy-uslubiy vositalardan foydalanish orqali strategik rejalashtirish va oqilona resurs taqsimoti ta'minlanadi, bu esa, o'z navbatida, hududlararo tenglikni mustahkamlash, hamkorlik salohiyatini to'liq ishga solish hamda zamonaviy talablar asosida samarali iqtisodiy siyosat yuritish uchun mustahkam ilmiy-amaliy poydevor yaratadi. Shu bois, ishlab chiqilgan tahliliy mexanizmlarni qaror qabul qilish jarayoniga chuqur va tizimli integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022-yil.
2. Abdrashitova, A. R. Prognozirovaniye strukturnykh sdvigov ekonomiki regiona s ispol'zovaniyem metoda "Zatraty–Vypusk". — Ufa: UGNTU, 2019-yil.
3. Orlova, A. V. Menedjment: osnovy upravleniya konfliktami i vedeniya delovoykh peregovorov. — Moskva: INFRA-M, 2020-yil. — 272 b.
4. Leontief, W. Input-Output Economics. — Oxford University Press, 1986-yil.
5. Miller, R. E., Blair, P. D. Input-Output Analysis: Foundations and Extensions. — 2-nashr. — Cambridge University Press, 2009-yil.
6. Radostovets, V. N. Mezotraslevoy balans: teoriya, metodologiya i praktika. — Moskva: Ekonomika, 2018-yil.
7. Nazrullayev, S. Regional Integration in Central Asia: A Quantitative Assessment. — Central Asian Survey, 2021-yil, 40(3), 334–351-betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Hududiy ma'lumotlar, 2020–2024-yillar. — <https://stat.uz>
9. ADB. Uzbekistan Country Partnership Strategy 2022–2026. — Asian Development Bank, 2022-yil.
10. UNCTAD. Interregional Trade and Cooperation Frameworks in Developing Countries. — Jeneva: United Nations, 2020-yil.



11. Xodjayev, Sh. Sh. O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishda viloyatlararo hamkorlikning ahamiyati. — Iqtisodiy taraqqiyot jurnali, №4, 2023-yil, 25–34-betlar.
12. Abdullayeva, M. A. Mahalliy iqtisodiyotda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish. — Toshkent: Fan, 2022-yil.
13. Romanov, S. A. Metody otsenki mezhregional'nogo ekonomicheskogo vzaimodeystviya. — Sankt-Peterburg: Politehnika, 2017-yil.
14. European Commission. Smart Specialisation Platform: Interregional Cooperation. — Bryussel, 2021-yil.
15. UNDP Uzbekistan. Regional Development and Sustainable Growth Report. — Toshkent: UNDP, 2023-yil.
16. Jo'rayev, S. N. O'zbekistonda hududiy iqtisodiy siyosatning zamonaviy yo'nalishlari. — Toshkent: "Iqtisod", 2023-yil.
17. OECD. Enhancing Regional Development in Uzbekistan. — OECD Publishing, 2022-yil.
18. Saidmurodov, A. Sh. Mamlakatda hududlararo sanoat hamkorligi istiqbollari. — Iqtisodiy fanlar jurnali, №1, 2024-yil, 45–53-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>